

## Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxona va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

*(Qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, dastlabki ma’lumot)*

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari) 2021- yil yanvar-sentabr oylarida **2 463,0** ming so‘mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **14,4** % ga o‘sdi.



### Viloyat bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

*(o‘tgan yillarning yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda)*



**Sohalar kesimida yuridik shaxslar va ishlovchi xodimlar soni**

*(2021- yil yanvar-sentabr oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)*

| | Korxona va tashkilotlar soni ( birlik) | Xodimlar soni, kishi | O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm (yanvar- sentabr) |
|---|---|---|---|
| | 2021- y. | 2021- y. | 2021- y. |
| **Xorazm viloyati - jami** | **3 108** | **129 117** | **2 463,0** |
| shu jumladan: | | | |
| Sanoat | 41 | 15 806 | 2 929,9 |
| Qurilish | 13 | 1 398 | 2 849,5 |
| Savdo | 26 | 1 847 | 2 162,9 |
| Tashish va saqlash | 11 | 2 653 | 4 185,3 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 12 | 71 | 1 472,9 |
| Axborot va aloqa | 18 | 781 | 2 931,1 |
| Moliyaviy va sug'urta faoliyati | 18 | 2 413 | 6 766,3 |
| Ta'lim | 1206 | 60 845 | 2 078,4 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar | 93 | 24 026 | 2 120,2 |
| San'at, ko'ngil ochish va dam olish | 157 | 1 914 | 1 862,1 |
| Boshqa faoliyat turlari | 1513 | 17 363 | 2 620,2 |

**Shahar va tumanlar bo‘yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

*(Qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)*

| | 2020- yil yanvar- sentabr | 2021- yil yanvar- sentabr | O‘sish sur'ati, % |
|---|---|---|---|
| **Xorazm viloyati** | **2 153,4** | **2 463,0** | **114,4** |
| Urganch sh. | 2 685,0 | 3 230,2 | 120,3 |
| Xiva sh. | 1 782,0 | 2 091,0 | 117,3 |
| *tumanlar:* | | | |
| Bog‘ot | 1 874,3 | 2 059,9 | 109,9 |
| Gurlan | 1 706,8 | 1 940,7 | 113,7 |
| Qo‘shko‘pir | 1 739,5 | 1 936,6 | 111,3 |
| Urganch | 2 015,7 | 2 172,0 | 107,8 |
| Hazorasp | 1 650,4 | 1 847,1 | 111,9 |
| Tuproqqal’a | 3 072,3 | 3 275,4 | 106,6 |
| Xonqa | 1 972,6 | 2 229,5 | 113,0 |
| Xiva | 1 856,1 | 2 069,5 | 111,5 |
| Shovot | 1 790,1 | 2 066,9 | 115,5 |
| Yangiariq | 1 856,9 | 2 154,1 | 116,0 |
| Yangibozor | 1 747,8 | 1 880,2 | 107,6 |

**Shahar va tumanlar bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbati, %**

***(2021- yil yanvar-sentabr, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)***




O‘rtacha oylik ish haqining tumanlar bo‘yicha eng yuqori miqdori Tuproqqal’a tumanida **3 275,4** ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 133,0 %), Urganch shahrida **3 230,2** ming so‘mni (131,1 %) tashkil etgan.

O‘rtacha oylik ish haqining eng past ko‘rsatkichlari quyidagi tumanlarda kuzatildi: Hazorasp **1 847,1** ming so‘m (75,0%), Yangibozor – **1 880,2** ming so‘m (76,3%), Qo‘shko‘pir - **1 936,6** ming so‘m (78,6 %). Mazkur tumanlarda o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan mos ravishda kam miqdorga ega bo‘lgan.



## "Ta'lim" iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

*(2021- yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)*

Ushbu sohada o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo'yicha viloyat ko'rsatkichiga nisbatan eng yuqori ko'rsatkichlar Urganch shahrida – **137,7 %** ni hamda Yangiariq tumanida **103,1 %** ni tashkil etgan.




Shu bilan birga, ushbu sohada 11 ta tumanda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan past ekanligi kuzatildi.




Viloyatdagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli past ko'rsatkichlar Qo'shko'pir tumanida **84,5 %** ni, Hazorasp tumanida **84,9 %** ni, Gurlan tumanida **86,8 %** ni hamda Yangibozor tumanida **88,7 %** ni tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'ldi.



**“Qurilish” iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

*(2021- yil yanvar-sentabr, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)*

Ushbu sohada o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo‘yicha viloyat ko‘rsatkichiga nisbatan eng yuqori ko‘rsatkichlar Xonqa tumanida **123,3 %** ni, Tuproqqal’a tumanida **121,2 %** ni, Urganch shahrida **110,2 %** ni tashkil etgan.




Shu bilan birga, ushbu sohada 8 ta tumanda o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat o‘rtacha ko‘rsatkichidan past ekanligi kuzatildi.




Viloyatdagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli past ko‘rsatkichlar Xiva tumanida **75,7 %** ni hamda Qo‘shko‘pir tumanida **64,1 %** ni tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘ldi.



**“Bank, sug‘urta va vositachilik” iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

*(2021- yil yanvar-sentabr, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)*

Ushbu sohada o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo‘yicha viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga teng miqdorda Urganch shahrida **100,0 %** kuzatildi.




Bank, sug‘urta va vositachilik sohasida ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **6 766,3** ming so‘mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 29,1 % ga o‘sdi.



**“Sanoat” iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

*(2021- yil yanvar-sentabr, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)*

Sanoat sohasi bo‘yicha tumanlardagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichi viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlar Tuproqqal’a tumanida **169,5 %** ni, Yangiariq tumanida **144,8 %** ni tashkil etdi.




Shu bilan birga, viloyatning 9 ta tumanida ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat darajasidan past ekanligi kuzatildi.




Ushbu soha bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan sezilarli darajada past ko‘rsatkichi Gurlan tumanida **71,8 %** ni, Qo‘shko‘pir tumanida **66,8 %** ni, Bog‘ot tumanida **65,3 %** ni hamda Urganch tumanida **58,9 %** ni tashkil etdi.



**“Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish” iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

*( 2021- yil yanvar-sentabr, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)*

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo‘yicha viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlar Qo‘shko‘pir tumanida **130,2 %** ni, Bog‘ot tumanida **113,9 %** ni, Xonqa tumanida **110,1 %** ni, Xiva tumanida **109,0 %** ni va Urganch tumanida **108,8 %** ni tashkil etgan.




Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2 120,2** ming so‘mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **10,1 %** ga o‘sdi.




Ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo‘yicha viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan sezilarli past ko‘rsatkichlar Tuproqqal’a tumanida **91,7 %** ni, Yangibozor tumanida **84,6 %** ni, Shovot tumanida **84,4 %** ni hamda Hazorasp tumanida **80,2 %** ni tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan eng kam miqdorga ega bo‘lmoqda.



### Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan o‘sish sur’atlari

*(2021- yil yanvar- sentabr, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)*

Viloyat bo‘yicha 2021- yil yanvar-sentabr oylarida 2020- yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bank, sug‘urta va vositachilik faoliyatida **29,1** % ga, axborot va aloqada **20,5** % ga, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda **19,4** % ga, san’at, ko‘ngil ochish va dam olish sohasida **18,3** % ga, ta’lim sohasida **16,8** % ga va qurilishda **16,6** % ga o‘sganligi kuzatildi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxona va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so‘m

*(2021- yil yanvar-sentabr, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)*




O‘rtacha ish haqining yuqori miqdori iqtisodiy faoliyat turlarining bank, sug‘urta va vositachilik faoliyatida – **6 766,3** ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,7 martaga yuqori), tashish va saqlashda – **4 185,3** ming so‘mni (69,9 %), sanoat sohasida - **2 929,9** ming so‘mni (19,0 %), axborot va aloqada - **2 931,1** ming so‘mni (19,0 %), qurilishda – **2 849,5** ming so‘mni (15,7 %) tashkil etdi.

## *Ma'lumot uchun:*

***O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-avgustdagi "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida" gi PF-6279 sonli farmoniga muvofiq, 2021- yilning 1- sentabridan boshlab mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 822 000,0 so'mni tashkil etadi.***




*Xorazm viloyati statistika boshqarmasi*
*Demografiya va mehnat statistikasi*
*bo'limi tel:(62)2246508*